CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

BERDIYOROV XURSHIDJON FARXOD O‘G‘LI

BO‘LAJAK MAXSUS PEDAGOGLARNI INKLYUZIV TA’LIMDA MULTIMODAL YONDASHUVLARDAN FOYDALANISHGA TAYYORLASH METODIKASI

13.00.03 – Maxsus pedagogika

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Chirchiq – 2026

UO‘K:376.091.3:373.014.53-056.26

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Berdiyorov Xurshidjon Farxod o‘g‘li
Bo‘lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta’limda multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorlash metodikasi ……..……. 3

Бердиёров Хуршиджон Фарход угли
Методика подготовки будущих специальных педагогов к использованию мультимодальных подходов в инклюзивном образовании ……...……...21

Berdiyorov Khurshidjon Farkhod ugli
Methodology for preparing future special educators to use multimodal approaches in inclusive education.....…….…….....41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....45

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

BERDIYOROV XURSHIDJON FARXOD O‘G‘LI

BO‘LAJAK MAXSUS PEDAGOGLARNI INKLYUZIV TA’LIMDA MULTIMODAL YONDASHUVLARDAN FOYDALANISHGA TAYYORLASH METODIKASI

13.00.03 – Maxsus pedagogika

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Chirchiq – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.2.PhD/Ped13027 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (yangi.cspi.uz/uz ilmiy-kengash) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Atamuratova Raxila Karshiyevna** pedagogika fanlari falsafa doktori(PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Abdullayeva Gavhar Saparovna** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
	Nazarova Dildora Asatovna Pedagogika fanlari nomzodi, professor
Yetakchi tashkilot:	**Qo‘qon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «10» 11 soat 14^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel: (+99871) 712-27-55; faks: (+99871) 712-45-41; e-mail: tvchdpi@cspu.uz)

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (535 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111720, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel: (+99871) 712-27-55; faks: (+99871) 712- 45-41)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “27” 10 da tarqatildi.

(2026-yil “10” 11 dagi 4 - raqamli reestr bayonnomasi).

F.U.Qodirova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

I.D.Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.O.Ximmataliyev
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

CamScanner yordamida skanerlangan

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonning yetakchi oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, ayniqsa, inkluziv ta’lim sharoitida samarali faoliyat yuritishga yo‘naltirilgan yondashuvlar keng joriy etilmoqda. So‘nggi yillarda an’anaviy ta’lim modellari o‘rnini bosayotgan aralash, masofaviy va raqamli ta’lim shakllari doirasida multimodal yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etib, turli sensor kanallar orqali bilimni o‘zlashtirish imkonini kengaytirmoqda. YUNESCO tomonidan ilgari surilgan “Bir umrlik ta’lim” konsepsiyasida ham ta’lim oluvchilar uchun ochiq, moslashuvchan va individual ehtiyojlarga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratish zarurligi alohida ta’kidlanadi. Shu jihatdan, bo‘lajak maxsus pedagoglarni inkluziv ta’limda multimodal yondashuvlardan samarali foydalanishga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo‘ladi.

Dunyoda AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Rossiya kabi mamlakatlarda maxsus va inkluziv ta’lim tizimida pedagoglarni tayyorlash jarayonida multimodal o‘qitish texnologiyalari, differensial yondashuvlar hamda individual ta’lim trayektoriyalari keng qo‘llanilmoqda. Bu yondashuvlar alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarni o‘qitishda vizual, auditiv, kinestetik va raqamli vositalar integratsiyasini ta’minlab, ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xususan, multimodal yondashuv doirasida interaktiv platformalar, assistiv texnologiyalar, virtual va kengaytirilgan reallik vositalari, adaptiv o‘quv dasturlari hamda sun’iy intellektga asoslangan o‘qitish tizimlaridan foydalanish orqali ta’lim jarayonini individuallashtirish imkoniyati kengaymoqda. Bo‘lajak maxsus pedagoglarni tayyorlashda multimodal yondashuvlar nafaqat texnologik vositalarni qo‘llashni, balki didaktik dizaynni yangilash, o‘quv materiallarini ko‘pkanalli taqdim etish hamda inkluziv muhitda differensial va individual yondashuvni ta’minlashni nazarda tutadi. Bu esa pedagoglardan axborot-kommunikatsion kompetensiya bilan birga inkluziv metodika, diagnostika va refleksiv faoliyat ko‘nikmalarini talab etadi.

Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalash, uni xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish va inklyuziv ta’limni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Jumladan, quyidagi ustuvor vazifalar aralash ta’limning metodik imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi: “Oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish”[1]. Ushbu strategik vazifalar kontekstida bo‘lajak maxsus pedagoglarni inkluziv ta’lim sharoitida samarali faoliyat olib borishga tayyorlash, xususan, multimodal yondashuvlar asosida o‘qitish metodikasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak maxsus pedagoglarni inkluziv ta’limda multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorlashning metodik modelini ishlab chiqish,

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risda”gi PF-5847-son Farmoni. - URL: https://lex.uz/docs/-4545884

uning didaktik ta’minoti, pedagogik shart-sharoitlari hamda samaradorlik mezonlarini asoslash bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8 oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020-yil 13-okyabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashtirilgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda inklyuziv va korreksion ta’limga mobil kadrlarni tayyorlash, oliy ta’limda o‘qitish samaradorligini oshirish masalalari M.Ayupova, G.Abdullayeva, L.Muminova, K.Mamedov, Z.Mamarajabova, D.Nurkeldiyeva, D.Nazarova, N.Raxmonqulova, U.Fayziyeva, G‘.Shoumarov, R.Shomaxmudova, D.Yakubjanova, F.Qodirova, F.Teshaboyeva, M.Maxmudova, M.Sattorova, D.Pulatova, M.Dehqanova, I.Sayfullayeva, X.Yunusovalar va boshqalarning ta’limda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning imkoniyatlari B.Abdullayeva, R.Djurayev, N.Muslimov, R.Safarova, O‘.Tolipov, J.Tolipova, M.Urazova, A.Xalikov, Sh.Shodmonova, F.Yuzlikayevlar va boshqalarning izlanishlarida tahlil etilgan.

MDH davlatlaridan V.Kovalyov, Y.Leytes, L.Bojovich, T.Shmidt, N.Berezina, I.Nechayev, K.Sergeyevich, Y.Romanova, N.Sorokina, M.Ovchinnikov, T.Gordeyeva va N.Shmatkolarning ilmiy izlanishlarida oliy ta’lim jarayonini tashkil etish va korreksion ta’limni tashkil etishning pedagogik-tashkiliy hamda metodikasi tadqiq etilgan.

Xorij davlatlarida oliy ta’limining o‘ziga xosligi, institutsional jihatlari va boshqaruv yondashuvlari hamda bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy amaliyotga tayyorlashning turli aspektlari F.Gertsberg, A.Maslou, J.Porter va E.Lauler, V.Frankl, R.Rayen va E.Desilar, N.Xosino, T.Xyusen, A.Maslou, G.Olport, B.Skinner, L.Festinger, Z.Freyd, X.Xekxauzen tomonidan tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ilmiy ishlar rejasining “Pedagogik ta’lim innovatsion klasterining ilmiy nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish” mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo‘lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta’limda multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorlash metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo‘lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta’limda multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorlashning pedagogik – psixologik xususiyatlarini aniqlash;

bo‘lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta’limda multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorlashning metodik modelini takomillashtirish;

talabalarni inklyuziv ta’limda multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorlash jarayonining didaktik ta’minotini takomillashtirish;

bo‘lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta’limda multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorligini baholash mezonlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo‘lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta’limda multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorlash jarayoni belgilangan bo’lib, tajriba-sinov ishlarida Andijon davlat instituti, Jizzax davlat pedagogika universiteti hamda Nukus davlat pedagogika institutining jami 453 nafar talabalari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini talabalarni inklyuziv ta’limda multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorlash metodikasini takomillashtirishning mazmuni, shakl, vosita va metodlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida nazariy yondashuvlar asosida ilmiy, o‘quv-uslubiy hamda me’yoriy manbalarni tahlil qilish, qiyosiy-taqqoslash, analogik va interpretatsion metodlardan foydalanildi. Empirik ma’lumotlarni yig‘ish maqsadida so‘rovnoma, pedagogik kuzatuv va test metodlari qo‘llanildi. Prognostik tahlil jarayonida esa ta’lim natijalarini diagnostika qilish, ekspert baholarini aniqlash, mustaqil fikrlarni umumlashtirish hamda pedagogik jarayonlarni modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

bo‘lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta’limda multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari psixologik moslashuv va differensial adaptatsiya tamoyillarini axborot va muqobil kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasini ta’minlashga o‘rgatish jarayoniga individual yondashuv ustuvorligida singdirish asosida ochib berilgan;

bo‘lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta’limda multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorlashning korreksion-pedagogik modeli to‘siqsiz muhitda akademik rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan korreksion-kompensatsion didaktik kompleksni davriy diagnostika natijalariga ko‘ra nogironlik toifalari kesimida mobil modifikatsiyalarda qo‘llash asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta’limda multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorlashning adaptiv texnologiyalari talabalarda

inklyuziv kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan akademik-ijtimoiy keyslar hamda mustaqil ta’lim loyihalarni refleksiv qaydlar sintezida qo‘llash asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta’limda multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorlashning didaktik ta’minoti inklyuziv ta’limda subektlar faoliyatini har bir bola uchun modellashtiriluvchi individual rivojlanish xaritasi indikatorlari bo‘yicha to‘siqsiz muhitni yaratishga qaratilgan “Mobil metodika”, “Teng imkoniyatlar portreti” kabi korreksion-rivojlantiruvchi resurslarni erkin tanlovli reglamentda hamda ommabop kontekstda qo‘llash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

talabalarning inklyuziv ta’limda multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorgarligini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik, psixologik-motivasion, umumdidaktik va o‘ziga xos xususiyatlari, samarali omillari, tamoyillari aniqlangan tarzda “Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” nomli darslik nashr qilingan va amaliyotga joriy etilgan;

bo‘lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta’limda multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorlik mezonlari hamda ularga inklyuziv ta’lim sharoitida erishilganlik darajalarini tahlil qilishning amaliy yo‘nalgan indikatorlari aniqlangan;

“Maxsus pedagogika yo‘nalishi talabalarini inklyuziv ta’limda multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorlashning integrativ modeli” modeli tarkibi va mazmuni takomillashtirilgan bo’lib, “Nogiron bolalar bilan ijtimoiy ish” nomli o‘quv qo‘llanma nashr qilingan;

inklyuziv ta’limda bo‘lajak maxsus pedagoglarni multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorlash texnologiyalari, variativ yondashuvlari ilmiy-amaliy asoslangan holda Maxsus pedagogika (Logopediya) ta’lim yo‘nalishining variativ o‘quv rejasi, modul o‘quv dasturi mazmuniga singdirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy yondashuvlar, metodlarning respublikamiz va xorijda yaratilgan pedagogika va maxsus pedagogikaga oid ilmiy va ilmiy-metodik tadqiqotlarga, amaliyotchi-o‘qituvchilarning tajribasiga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o‘zaro bir-birini to‘ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo‘llanganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi, tadqiqot natijalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarning mustaqil ta’limini samarali tashkil etishga oid xorijiy va milliy tajribalarning tahlil etilganligi, auditoriyadan tashqari talabalarning faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy, pedagogik, psixologik tuzilmasi hamda metodik ta’minoti tabaqalashtirilganligi, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarga asoslangan holda modernizatsiyalanganligi, talabalarda kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning samarali yo‘llari va omillari aniqlanib, amaliyotga bo‘lajak logopedlarni tadqiqotchilik faoliyatni loyihalashtirish, monitoring qilish, metodik rejalashtirish va boyitishga mo‘ljallangan strategiya, texnologiyalar hamda ularning

transformatsiyalari tatbiq etilgani, axborot muhitida subyektlarning qulay harakatlanishiga oid tajribalarining yo‘lga qo‘yilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati pedagogika instituti va universitetlari Maxsus pedagogika (Logopediya) ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbga oid nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikma, malakalarini vaqt va makonga bog‘liq bo‘lmagan aralash ta’lim sharoitida rivojlantirishga mo‘ljallangan variativ o‘quv reja, fan dasturlari, o‘quv resurslari ishlab chiqilgani, talabalarning tadqiqotchilik faoliyatini baholash mezonlarining takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo‘lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta’limda multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorlash metodikasini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

bo‘lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta’limda multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari psixologik moslashuv va differensial adaptatsiya tamoyillarini axborot va muqobil kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasini ta’minlashga o‘rgatish jarayoniga individual yondashuv ustuvorligida singdirishga oid takliflari “Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 25-noyabrdagi 388-080-son guvohnomasi). Natijada, talabalarning inklyuziv ta’limda multimodal yondashuvdan foydalanishga maqsadli tayyorlashning kasbiy axborot muhiti yaratilgan;

bo‘lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta’limda multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorlashning korreksion-pedagogik modeli to‘siqsiz muhitda akademik rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan korreksion-kompensatsion didaktik kompleksni davriy diagnostika natijalariga ko‘ra nogironlik toifalari kesimida mobil modifikatsiyalarda qo‘llashga doir takliflari “Nogiron bolalar bilan ijtimoiy ish” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 27-martdagi 68-son buyrug‘i va 68-776-son guvohnomasi). Natijada, talabalarning inklyuziv ta’limda faoliyat olib borishda adaptiv instrumentlardan differensial foydalanishga o‘rgatish jarayonini takomillashtirishga xizmat qilgan;

bo‘lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta’limda multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorlashning adaptiv texnologiyalari talabalarda inklyuziv kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan akademik-ijtimoiy keyslar hamda mustaqil ta’lim loyihalarni refleksiv qaydlar sintezida qo‘llashga doir tavsiyalari Jizzax davlat pedagogika universiteti, Andijon, Nukus davlat pedagogika institutlarining o‘quv jarayoni hamda talabalar amaliyotini hududiy maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari bilan hamkorlikda tashkil etish jarayoniga joriy etilgan (O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazining 2026-yil 5-iyundagi 01/10-01-235-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalar kasbiy faoliyatini ilmiy yo‘nalganlikda modellashtirishning didaktik ta’minoti takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya

komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta, shundan, respublika jurnallarida 3 ta, xorijiy jurnalda 2 ta maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 115 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

“Kirish” qismda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining respublikaning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta’limda multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorlashning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida inklyuziv ta’limning zamonaviy tendensiyalari, tamoyillari va omillari, multimodal yondashuvlarning inklyuziv ta’limda qo‘llanilishi va ularning imkoniyatlarini tadqiq etish natijalari va tahlili yoritilgan. Bugungi kunda inklyuziya shunchaki maktabga qabul qilish emas, balki bolaning har tomonlama ijtimoiylashuvi va jamiyatning to‘laqonli a’zosiga aylanishini ta’minlovchi murakkab tizimdir. Shu bois, zamonaviy inklyuziv ta’lim konsepsiyalarida bolaning individual ehtiyojlari birinchi o‘ringa chiqib, ta’lim mazmuni uning imkoniyatlariga moslashtiriladi. Bu jarayonda gumanizm tamoyili asosiy o‘rin tutib, har bir bolaning shaxsiy qadr-qimmati va uning ta’lim olishga bo‘lgan fundamental huquqi e’zozlanadi.

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish jarayonida an’anaviy bir yo‘nalishli ta’lim metodlari o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini to‘liq qondira olmayapti. Chunki har bir bolaning axborotni qabul qilish va qayta ishlash mexanizmi turlicha bo‘ladi. Ayrim o‘quvchilar ma’lumotni ko‘rish orqali samarali o‘zlashtirsa, boshqalari eshitish, amaliy harakat yoki taktil sezgilar orqali yaxshiroq idrok etadi. Shu sababli multimodal yondashuv ta’limning differensial va individual xarakterini kuchaytirib, o‘quvchilarning o‘quv faoliyatidagi faolligini oshiradi.

Multimodal yondashuv zamonaviy inklyuziv ta’limning muhim pedagogik strategiyalaridan biri bo‘lib, ta’lim jarayonida axborotni bir vaqtning o‘zida bir necha sensor (ko‘rish, eshitish, kinestetik) kanallar orqali uzatish hamda qabul qilishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuvning asosiy mohiyati har bir o‘quvchining individual bilish uslubi, psixofiziologik imkoniyati va sensor ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishdan iboratdir. Ayniqsa, inklyuziv ta’lim sharoitida multimodal yondashuv alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarning bilimlarni samarali o‘zlashtirishi, kommunikativ faolligi va ijtimoiy moslashuvini ta’minlovchi muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Bo‘lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta’limda multimodal yondashuvdan foydalanishga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari, o‘ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlari, zarur shart-sharoitlarini aniqlash hamda ta’limiy tadqiqot olib borishning ilmiy konsepsiyasini, ustuvor vazifalarini belgilash maqsadida qator ilmiy nashrlar tahlil etildi. Xususan, N.N.Malofeyev inklyuziv ta’limda alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalarni umumiy ta’lim muhitiga kiritish faqat tashkiliy masala emas, balki ta’lim mazmuni, metodlari, baholash tizimi va pedagogik muhitni bolaning individual imkoniyatlariga moslashtirish bilan bog‘liq murakkab pedagogik jarayon sifatida qarash lozimligini ta’kidlaydi. Bu esa, moslashuvchan o‘quv dasturlari, korreksion yordam va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash inklyuziv ta’lim samaradorligining asosiy shartlaridan biridir. Demak, multimodallik ham bolaning individual idrok kanallari, sensor imkoniyatlari va o‘zlashtirish sur’atiga mos ta’lim muhitini yaratishga xizmat qiladi.

A.V.Xutorskiy esa shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, individual ta’lim trayektoriyasi va kompetensiyaviy yondashuv masalalarini chuqur asoslagan olimlardan biri hisoblanadi. Uning fikricha, ta’lim jarayoni o‘quvchining tayyor bilimlarni qabul qilishi bilan cheklanmasligi, balki uning shaxsiy tajribasi, qiziqishi, bilish uslubi va mustaqil faoliyatiga tayangan holda tashkil etilishi lozim. Olim individual ta’lim trayektoriyasini har bir ta’lim oluvchining imkoniyatlari, ehtiyojlari va rivojlanish sur’atiga mos ravishda quriladigan pedagogik yo‘l sifatida izohlaydi. Demak, inklyuziv ta’limda maxsus pedagogi multimodal texnologiyalarni qo‘llashi zarur, chunki vizual, audial, kinestetik, taktil va raqamli vositalar orqali ta’lim mazmunini turli shakllarda taqdim etish har bir bolaning o‘ziga xos bilish imkoniyatlarini faollashtiradi.

L.S.Vigotskiy nuqsonning kompensator rivojlanish nazariyasida bolaning saqlanib qolgan funksiyalariga tayanish zarurligini ta’kidlagan bo‘lsa, A.R.Luriya multimodal ta’sirning neyropsixologik asoslarini tadqiq etib, axborotning bir necha analizatorlar orqali qabul qilinishi miyaning turli funksional tizimlarini bir vaqtda faollashtirishini ilmiy asoslab bergan. Ushbu g‘oyalar multimodal yondashuvning ilmiy-metodologik asosini tashkil etadi. Chunki multimodal ta’lim jarayonida bir analizator faoliyati yetarli bo‘lmagan hollarda boshqa sensor tizimlar orqali kompensator rivojlanish ta’minlanadi. Masalan, ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda taktil va eshituv analizatorlari faollashadi, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda esa vizual va kinestetik idrok yetakchi rolni bajaradi. Demak, multimodal yondashuv bolaning mavjud imkoniyatlarini maksimal darajada ishga solishga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta’limda multimodal yondashuvning zarurati, avvalo, ta’limning teng imkoniyatlilik tamoyili bilan izohlanadi. Chunki alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun moslashtirilmagan ta’lim muhiti ularning o‘quv faoliyatida passivlashuv, kommunikativ to‘siqlar va ijtimoiy izolyatsiyani yuzaga keltirishi mumkin. Multimodal vositalardan foydalanish esa o‘quv materiallarini moslashtirish, axborotni soddalashtirish va uni turli sezgi kanallari orqali yetkazish imkonini beradi. Natijada bolaning o‘zlashtirish darajasi, motivatsiyasi va mustaqil faoliyati oshadi.

Multimodal yondashuvning yana bir muhim jihati uning kommunikativ va

ijtimoiylashuv imkoniyatlaridadir. Inklyuziv muhitda verbal va noverbal kommunikatsiya vositalaridan uyg‘un foydalanish o‘quvchilarning jamoa bilan muloqot qilish, fikr almashish va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, piktogrammalar, audioyozuvlar, subtitrlar, taktil modellar, interaktiv doskalar va raqamli platformalardan foydalanish bolalarning dars jarayonidagi faolligini sezilarli oshiradi. Shuningdek, multimodal yondashuv bo‘lajak maxsus pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda ham alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagog nafaqat nazariy bilimga, balki multisensor metodlardan foydalanish, raqamli texnologiyalarni integratsiyalash, adaptiv o‘quv materiallarini yaratish va individual ta’lim trayektoriyasini loyihalash ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi zarur. Shu sababli oliy ta’lim tizimida bo‘lajak maxsus pedagoglarni multimodal yondashuv asosida tayyorlash bugungi kunning dolzarb pedagogik vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Asoslovchi tadqiqotda bo‘lajak maxsus pedagoglarni multimodal yondashuvdan foydalanishga tayyorlashning bir necha jihatlari o‘rganildi. Xususan, pedagogik-metodik jihatlari U.Fayzieva, M.Sattarova, Sh.Matupaeva, X.Yunusovalarning tadqiqotlarida asoslab berilgan. Texnologik jihatlarini esa multimodal yondashuv axborotlashgan ta’lim muhiti va mashq maydoni sifatida talqin etib, multimodal yondashuv uchun zamonaviy axborot texnologiyalari, multimedia vositalarini korreksion jarayonga integratsiya qilish orqali interaktiv va ko‘p sensorli ta’lim muhitini yaratish lozim degan qarashlarni V.A.Xafizulina, G.Abdullayeva, D.Pulatova, D.Shukurovalarning tadqiqotlarida k‘orishimiz mumkin. Ushbu olimlarning izlanishlari natijasida bo‘lajak pedagoglarning texnologik tayyorgarligi inklyuziv ta’limda multimodal ta’sir samaradorligini oshirishi isbotlangan. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta’limga tayyorlash jarayonida ularning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda kasbiy eruditsiya, metodik tayyorgarlik va diagnostik tayyorgarlik mezonlari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Multimodal yondashuv inklyuziv ta’limning insonparvarlik mohiyatini ro‘yobga chiqaruvchi, ta’limni moslashuvchan va differensial tashkil etishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik tizim hisoblanadi. Ushbu yondashuv har bir bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olish, uning kompensator rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash hamda jamiyatda to‘laqonli ijtimoiylashuvini ta’minlashning muhim metodologik asosi sifatida ahamiyat kasb etadi.

Nazariy ma’lumotlar, milliy hamda xorijiy tajribalarni tahlil qilish asosida multimodallik, multimodal yondashuv tushunchalari tadqiqotda alohida talqin etilgan. Tadqiqot natijalari multimodal yondashuvni nafaqat axborotni “ko‘pkanalli uzatish” sifatida, balki integrativ, kompensator va adaptiv pedagogik tizim sifatida talqin etilishini ko‘rsatdi. Ulardan kelib chiqqan holda multimodal yondashuvga quyidagicha ta’rif berildi: “**Multimodal yondashuv** – bu ta’lim oluvchining individual psixofiziologik xususiyatlari, sensor imkoniyatlari va kompensator rivojlanish mexanizmlarini hisobga olib, o‘quv axborotini vizual, audial, kinestetik va raqamli kanallar integratsiyasi orqali uzatish, qayta ishlash va o‘zlashtirishni ta’minlovchi, didaktik, texnologik va kommunikativ komponentlar uyg‘unligiga asoslangan adaptiv-pedagogik tizimdir”.

Ta’limiy tadqiqot konsepsiyasini ishlab chiqish uchun ham amaliyotdagi mavjud holatlarni keng tahlil etishga ehtiyoj tug‘ildi va tadqiqotning keyingi bosqichida aynan bo‘lajak maxsus pedagoglarni multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorlash masalasini alohida maxsus metodik tizim asosida o‘rganish lozim degan xulosalarga kelindi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Bo‘lajak maxsus pedagoglarni multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari va texnologiyalari”** deb nomlangan bo‘lib, Inklyuziv ta’limda multimodal texnologiyalarni qo‘llashga talabalarni tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari va integrativ modeli va komponentlari, ixtisoslik modullarini o‘qitish jarayonida talabalarni multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorlash texnologiyalari, usul hamda vositalari yoritilgan.

Multimodal yondashuvning asl negizida ta’limni hayot bilan bog‘lash va bolani real ijtimoiy vaziyatlarga tayyorlash g‘oyasi ham mujassamdir. Sifatli ta’lim tizimi bolaga nafaqat formula va qoidalarni o‘rgatishi, balki ularni kundalik hayotda, muloqotda va mehnat faoliyatida qanday qo‘llashni ko‘rsatib berishi lozim. Multisensor o‘yinlar va mashqlar orqali bolaning hayotiy tajribasi boyitiladi, bu esa uning kelajakda kasb tanlashi va ijtimoiy munosabatlarga kirishishini yengillashtiradi.

Korreksion ta’limda multimodal yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlari zamonaviy axborot va sensor texnologiyalar rivoji bilan tobora kengayib bormoqda. Maxsus sensor xonalar, interaktiv maydonchalar va adaptiv raqamli vositalar bolaning emotsional holatini barqarorlashtirish, stress darajasini kamaytirish hamda bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi. Multimodal yondashuv asosida qo‘llaniladigan metod va vositalar bolaning individual rivojlanish trayektoriyasini belgilash, uning o‘zlashtirish dinamikasini monitoring qilish va natijalarni ob’ektiv baholash imkonini beradi. Mazkur texnologiyalardan samarali foydalanish korreksion ta’limning pedagogik salohiyatini oshirib, alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalarning hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Logopedik mashg‘ulotlarda multimodal vositalardan foydalanish tovushlarni o‘zlashtirish jarayonida vizual, audial va taktil kanallarning integratsiyasiga asoslanadi. Bunda bola tovushni nafaqat eshitadi, balki artikulyatsion harakatlarni kuzatadi va tebranishlarni sezadi. Ushbu yondashuv nutq nuqsonlarini korreksiya qilish samaradorligini oshirib, artikulyatsion ko‘nikmalarni tezroq shakllantirish imkonini beradi. Shu sababli bo‘lajak logopedlar axborotni turli sensor kanallar orqali uzatish va multisensor metodlardan foydalanish kompetensiyalarini egallashlari zarur. Multimodal yondashuv logopedik amaliyotda vizual, taktil, hid va ta’m sezgilarini ham faol jalb etib, imo-ishora, mimika va tasviriy vositalar uyg‘unligi asosida bolaning nutqiy va kommunikativ faolligini rivojlantiradi.

Surdopedagogikada multimodal yondashuv eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning axborotni qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunda vizual hamda taktil-vibratsion sezgilar yetakchi o‘rin egallab, tovushlarni vizuallashtirish, daktil nutq va imo-ishora vositalarini integratsiyalash orqali kompensator rivojlanish ta’minlanadi. Natijada bolaning nutqiy muhitga moslashuvi, kommunikativ faolligi va ijtimoiy integratsiyasi jadallashadi.

Oligofrenopedagogikada esa multimodal yondashuv intellektual nuqsoni bo‘lgan bolalarning bilish faoliyatini faollashtirishda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Axborotni ko‘rgazmali, taktil va harakatli shakllarda taqdim etish murakkab tushunchalarni o‘zlashtirishni yengillashtirib, diqqat, xotira va tafakkur jarayonlarini rivojlantiradi. Shu asosda bolalarda faol idrok, amaliy faoliyat va kundalik hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish samaradorligi oshadi.

Ixtisoslik modullarida multimodal yondashuvga oid maxsus bo‘limlar (“Sensor integratsiya”, “Multimediali texnologiyalar”) kiritilishi zarur. Talabalarda multimodal darslarni loyihalash, assistiv texnologiyalar bilan ishlash va amaliy algoritmlardan foydalanish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bu ularning kasbiy tayyorgarligini va raqobatbardoshligini oshiradi.

Mustaqil ta’lim jarayonida multimodal topshiriqlar (multisensor darslik yaratish, individual dastur ishlab chiqish, videodars tayyorlash) talabaning ijodkorligi va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Biroq amaliyotda texnik baza yetishmasligi, metodik eskirganlik va innovatsiyaga sust munosabat multimodallikni qo‘llashni cheklamoqda. Shu bilan birga, multimodal yondashuvni qo‘llashda psixologik omillar muhim bo‘lib, pedagog bolaning yetakchi sezgi kanalini aniqlashi va ortiqcha sensor yuklamani oldini olishi zarur. Multimodallik nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki bolaning emotsional barqarorligini ta’minlashga ham xizmat qiladi.


Tadqiqot doirasida “Maxsus pedagogika yo‘nalishi talabalarini inklyuziv ta’limda multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorlashning integrativ modeli” modeli tarkibi va mazmuni takomillashtirildi(1-rasm). Integrativ model faoliyatli-multimodal yondashuv nuqtai-nazaridan talabalarni inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlashga qaratilgan bo‘lib, U.Y.Fayziyeva, G.S.Abdullayeva, D.Sh.Shukurova, D.A.Pulatovalarning modellariga tayanilib, takomillashtirildi.

Model o‘zaro uzviy bog‘langan maqsadli, mazmunli, tashkiliy-faoliyatli va natijaviy blok komponentlaridan iborat.

Maqsadli blok bo‘lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta’lim sharoitida multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorlashning umumiy yo‘nalishini belgilaydi. Unda talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, individual ta’lim ehtiyojlarini aniqlash hamda multimodal vositalar asosida pedagogik faoliyatni loyihalashga tayyorlikni rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

Mazmunli blok ta’lim jarayonining ichki tarkibini ifodalaydi. Unda multimodal yondashuvning nazariy asoslari, inklyuziv ta’lim tamoyillari, shuningdek, o‘quv materiallarini vizual, audial, kinestetik va raqamli shakllarda ishlab chiqish hamda qo‘llashga oid amaliy ko‘nikmalar tizimli ravishda yoritiladi. Shu bilan birga, talabalarning refleksiv faoliyati va o‘z-o‘zini baholash mexanizmlari ham mazkur blok doirasida shakllantiriladi.

Faoliyatli blok modelning amaliy ishlash mexanizmini belgilaydi. U motivatsion, texnologik, amaliy va refleksiv bosqichlardan iborat bo‘lib, o‘quv, korreksion va tarbiyaviy faoliyat integratsiyasini ta’minlaydi. Jarayonda individual va guruhli mashg‘ulotlar, interfaol metodlar, multimediya vositalari hamda assistiv texnologiyalar asosida ta’lim tashkil etiladi.



1-rasm. Maxsus pedagogika yo‘nalishi talabalarini inklyuziv ta’limda multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorlashning integrativ modeli

Natijaviy blok model samaradorligini aks ettiradi. Natijada bo‘lajak maxsus pedagoglarda multimodal yondashuv asosida ishlashga oid nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va refleksiv kompetensiyalar shakllanadi. Talabalar inklyuziv ta’lim muhitida samarali pedagogik faoliyat olib borishga tayyor, raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanadi.

Integrativ modelning tarkibiy qismi sifatida fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash ikkinchi muhim pedagogik shart hisoblanadi. Bunda neyropsixologiya, maxsus pedagogika va axborot texnologiyalari fanlari o‘rtasidagi integratsiya “sinergetik ta’sir” yaratishi lozim. Metodik tavsiyalarga ko‘ra, ushbu fanlarning kesishish nuqtasida “Sensor tizimlar filogenizi” va “Raqamli korreksion texnologiyalar” kabi tushunchalar izohlangan va amaliyotda qo‘llanilishiga oid mavzularning mavjudligi talabada yaxlit kasbiy dunyoqarashni shakllantiradi. Bunday yondashuv bo‘lajak pedagogga bolaning nuqsonini faqat tibbiy emas, balki axborot almashinuvidagi texnik-pedagogik muammo sifatida ko‘rishga yordam beradi.

Talabalarni tayyorlashning texnologik jihozlanganlik sharti integrativ modelning moddiy-texnik negizini tashkil etadi. Maxsus laboratoriyalar va “sensor xonalar”da talabalar zamonaviy multimedia vositalari, tovush kuchaytirgichlar va taktil panellar bilan ishlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari zarur. Metodik jihatdan bu jarayon “texnologik sinov” bosqichlariga bo‘linib, talaba har bir qurilmaning korreksion imkoniyatlarini aniq tashxis qilishni o‘rganadi. Texnologiya bilan bevosita muloqot talabada innovatsiyalardan qo‘rqmaslik va ularni maqsadli qo‘llash mahoratini tarbiyalaydi.

Integrativ modelning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan bo‘lajak pedagoglarning **individual kasbiy traektoriyasini (IKT)** loyihalash pedagogik jarayonni talabaning shaxsiy imkoniyatlari, kasbiy qiziqishlari va multimodal texnologiyalarni o‘zlashtirish darajasiga moslashtirishga xizmat qiladi. Individual kasbiy traektoriya talabaning inklyuziv ta’lim sharoitida multimodal yondashuvlardan foydalanishga tayyorligini bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo‘naltirilgan shaxsiy rivojlanish dasturi sifatida talqin etildi. Traektoriyani samarali tashkil etish maqsadida, avvalo, talabaning multimodal axborot bilan ishlashga oid boshlang‘ich kompetensiyalarini aniqlashga qaratilgan sensor-kompetentlik diagnostikasi amalga oshirildi. Bunda talabaning vizual, audial va kinestetik idrok ustuvorligi hamda AKT bilan ishlash darajasi tahlil qilinib, individual rivojlanish ehtiyojlari belgilandi.

